



УДК: 72.01.

MAXDUMI A'ZAM ZIYORATGOHINING QURILISHI VA TARIXI

Xalilova Shirin Abduazizova

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
"Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi" magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maxdumi A'zam ziyoratgohining qurilishi va tarixi, joylashgan o'рни haqida bo'lib, majmuaning hazira, keng ayvonli katta masjidi, kichik masjidi, darvozaxonasi, chillaxona va hujralari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье речь идет о строительстве и истории комплекса Махдуми Аъзам, его местонахождении, а также сведениях о существующей большой мечети с широким крыльцом, малой мечети, сторожке, чилахане и помещениях комплекса.

Kalit so'zlar: Ziyoratgoh, qurilish, tarix, masjid, tarixiy joylar, yodgorlik, landshaft dizayni, rivojlanish, madaniy, ma'naviy.

Ключевые слова: Святыня, строительство, история, мечеть, чилахане, исторические места, памятник, ландшафтный дизайн, развитие, культурное, духовное.

Kirish. Ushbu maqola Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida joylashgan Maxdumi A'zam ziyoratgohi atrofidagi hududni qayta tiklash va obodonlashtirish, shuningdek, ziyoratgohining qurilishi va tarixi, joylashgan o'рни haqida bo'lib, majmuaning hazira, keng ayvonli katta masjidi, kichik masjidi, darvozaxonasi, chillaxona va hujralarning soni, arxitekturasi aytib o'tilgan.

Materiallar va usullar. Maxdumi A'zam majmuasi Samarqand viloyati Dahbed qishlog'idagi me'moriy yodgorlik 16-19-asrlarga tegishli bo'lib, majmua mashhur shayx, sufiylar namoyandasi Maxdumi A'zam nomi bilan bog'liqdir. Asli farg'onalik bo'lgan ul zot Samarqand hokimi Jonibek Sulton tomonidan Samarqandga taklif etilgan. O'g'li Iskandar Sulton uni o'zining piri deb e'zozlagan. Maxdumi A'zam 78 yoshida shu Dahbed qishlog'ida vafot etgan.

1610-yilda Yalangto'sh Bahodir boshchiligida xonaqoh va daxma qurilgan. 17-asrda esa katta masjid qad ko'targan. Keyinchalik Maxdumi A'zam avlodlari ham shu yerga dafn qilingan. Nodir Devonbegi tomonidan balandligi 1,4 metr bo'lgan atrofi devor bilan o'ralib, ta'mir ishlari olib borilgan.

Majmua shimolda hazira, janubda keng ayvonli katta masjid, yonida kichik masjid, sharqida darvozaxona, chillaxona va hujralardan tashkil topgan. Katta masjidxonaqoh olti ustunli, o'n ikki gumbazli bo'lib, ayvoni ikki qatorli o'n to'rt ustun qurilgan. (1-rasm)

Kichik masjidga o'tish uzun yo'lagi bo'lib, Masjid ikki ustunli, vassa shiftli, ayvoni tort ustunli, poy-ustunlari toshdan ishlangan. Haziradagi Maxdumi A'zam sag'anasi balandligi 1,7 m kulrang marmar bilan qoplangan. Pastki qismidagi to'qqista marmar toshtaxtalar Maxdumi A'zam avlodlari, Yalangto'sh Bahodir va uning qizi Iqlimga tegishli

bo'lib, keyingi yillardagi ta'mir vaqtida hammasi bir joyga to'plangan. Maxdumi A'zam majmuasi yaqinida minora va keng hovuz joylashgan. 1998-yilda majmua qayta tiklanib, atrofi obodonlashtirildi.[2]

Ma'lumki, yurtimizdan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ayniqsa, bu unumdor zaminda o'rta (IX-XII) asrlarda yuzlab zodagonlar samarali mehnat qilib, o'z ta'limoti bilan butun dunyoni dovdiratgan. Bu mashhur Maxdumi A'zam majmuasi – Samarqand viloyatining Daxbed shahridagi me'moriy yodgorlik 16-19 asrlarga tegiahlidir.



1-rasm. Maxdumi A'zam majmuasining olti ustunli katta masjidxonaqohi.
(<https://www.google.com/searchqMaxdum>)

Maxdumi A'zam majmuasi yonida minora va katta hovuz bor. 1998 yilda majmua qayta tiklandi va atrofi obodonlashtirildi. Oqdaryo viloyatining Dahbed qal'asida joylashgan "Maxdumi A'zam" jome' masjidi Yalangtush Bahodir tomonidan 1619-yilda bunyod etilgan bo'lib, o'z davrining madaniyat markazlaridan biri hisoblangan. Masjid nomi o'sha davrning buyuk allomalaridan biri, mutafakkir Hazrati Maxdumi A'zam nomi bilan bog'liq. Asl ismi Sayyid Ahmad Xoja Kosoniy, 1463-64 yillarda Farg'ona vodiysidagi Kosonsoyda tug'ilgan.



2-rasm. Maxdumi A'zam majmuasi
(<https://www.google.com/searchqMaxdum>)

O'z yurtida va Toshkentda tahsil olib, Shaybon hukmdorlaridan Jonibek Sultonning taklifi bilan Samarqandning Miyonqal vohasiga ko'chiriladi. Bu odam kelganidan keyin bu yerga o'nta tol ekadi.

Keyinchalik bu joy o'nta baland daraxti tufayli "dahbed" deb atalgan. Maxdumi A'zam 30 dan ortiq asarlar muallifi, naqshbandiya tariqatining shayxlik darajasiga yetgan olimidir. O'z davrida yuzlab shogirdlar yetishtirgan Maxdumi A'zam hazratlari 1542 yili Dahbedda



vafot etadilar. Maxdumi A'zam qo'nim topgan joyda ko'plab olimlar dafn etilgan bo'lib, bugungi kunda bu maskan odamlar gavjum ziyoratgohga aylangan. Masjid hovlisida 500 yillik chinor o'sadi. Mustaqillik yillarida Dahbed butunlay o'zgartirilib, ulkan ishlar natijasida go'zal shaharga aylandi. 1991-yilda Maxdumi A'zam ziyoratgohi qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. 1998 yilda to'liq ta'mirlangan.[1]

Mustaqillik yillarida tarixiy-me'moriy majmua butunlay obod maskanga aylandi. Qayta tiklash ishlarida mamlakatimizning barcha viloyatlaridan tajribali ta'mirchilar ishtirok etdi. Har bir tuzilmaning o'ziga xos imkoniyatlari mavjud bo'lib, u shaharning tabiati, kompozitsion muhiti, shahardagi aholi zich joylashgan turar-joy massivlari, tuman markazlari shaharni rejalashtirish tuzilmasida asosiy o'rin tutadi. Ular mikrorayon tarkibidagi tarixiy ko'chani aks ettirib, Samarqand tarixiy shahar ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosa. Bugungi kunda Maxdumi A'zam ziyoratgohiga tashrif beruvchilarning soni kundan kunga ko'payib bormoqda. Zamonaviy turistik markazlarni shakllantirish va tashkil etish ularning mazmunini kengaytirish, tuzilishini rivojlantirish, arxitektura ekspressivligini oshirish, tarixiy markazlarni o'zgartirish va ularga tutash hududlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, shahar me'morlari oldida barcha tarixiy qimmatli elementlardan faol foydalanish va ularni asrab-avaylash, qadimiy va yangi barpo etilgan inshootlarning - tarixan yaratilgan inshootlardan tortib to zamonaviylarigacha bo'lgan uyg'un birligini yaratish vazifasi turibdi.

ADABIYOTLAR:

1. Лавров В.А. Градостроительная культура Центральной Азии. М., 1950.
2. Л.Ю. Маньковская "Типологические основы архитектуры Центральной Азии". Ташкент: Фан, 1980.
3. D.A. Nozilov "Xalq me'morchiligi". Toshkent. Fan, 1982 yil.
4. Халилова, Ш. А., & Исламова, Д. Г. (2023). БЛАГОУСТРОЙСТВО ТЕРРИТОРИИ ВОКРУГ МЕМОРИАЛЬНЫХ ПАМЯТНИКОВ. АРХИТЕКТУРА СВЯТЫНИ МАХДУМИ АЗАМ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(8), 120-122.
5. Gayratovna, I. D., & Sodiqovich, D. V. (2022, October). IMOM MOTURIDIY MAQBARASINING HOZIRGI HOLATI, UMUMIY MAYDONI VA LANDSHAFTI HAQIDA MA'LUMOT. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 1, No. 1, pp. 113-118).